

O'ZBEKISTONDAGI O'LKASHUNOSLIK MUZEYLAR FAOLIYATI

To'ychiyeva Nilufar

*Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik menejmenti va
Madaniy turizm yo'nalishi 3- kurs
talabasi.*

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning qadimiy va boy tarixga ega bo'lmish O'lkashunoslik muzeylari va ularning faoliyati haqida so'z boradi. O'lkashunoslik muzeylari ularning boy ekspozitsiyalari, nodir durdonalari haqida ilmiy va badiiy yondashuvga egaligi bilan ushbu maqola alohida diqqatga sazovordir. Maqola O'lkashunoslik muzeylari tarixi va bugungi kunda ularni muzeylar misolida namoyon qilishga qaratilgan, ilmiy jihatdan aniq ma'lumotlarga asoslangan.

Kalit so'zlar: milliy madaniy meros, madaniy markaz, milliy qadriyat, ma'naviy madaniyat yodgorliklari, muzey madaniyati, ekspozitsiya, muzey qo'riqxonasi, o'lkashunoslik muzeylari tarixi obida.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о краеведческих музеях Узбекистана, имеющих древнюю и богатую историю и их деятельность. Эта статья заслуживает особого внимания благодаря тому, что музеи мертвых обладают научным и художественным подходом к своим богатым экспозициям, редким шедеврам. Статья посвящена истории краеведческих музеев и их представлению сегодня на примере музеев, основанных на научно точных данных.

Ключевые слова: национальное культурное наследие, культурный центр, национальные ценности, памятники духовной культуры, музейная культура, экспозиция, Музей-заповедник, краеведческий музей-Исторический памятник.

Annotation: This article will talk about the Local History Museums of Uzbekistan and their activities, which have an ancient and rich history. With the fact that museums of dying have a scientific and artistic approach to their rich expositions, rare masterpieces, this article is of particular note. The article focuses on the history of Local History museums and their manifestation on the example of museums today, based on scientifically accurate data.

Key words: National Cultural Heritage, Cultural Center, National value, monuments of spiritual culture, museum culture, exposition, Museum Reserve, local history museums are historical monuments.

O'lkashunoslik muzeylari — ilmiy tekshirish va madaniyma'rifiy muassasa. Ma'lum geografik yoki ma'muriy hududning tarixiy yodgorliklari, tabiiy ilmiy va badiiy to'plamlari, xalq san'ati asarlarini yig'adi, saqlaydi, ilmiy o'rganadi, ko'rgazmalar uyushtiradi va targ'ib qiladi. Muzeylarning keng tarqalgan turi bo'lgan O'lkashunoslik muzeylari kompleks yo'nalishga ega: unda, asosan, tabiat, tarix, ba'zilarida shuningdek san'at, adabiyot va etnografiya, ayrimlarida qishloq xo'jaligi, iqtisod, sport kabi bo'limlar ham bo'ladi. O'lkashunoslik muzeylari katalog, yo'l ko'rsatkichlar va boshqalarni nashr qiladi.

20-asr boshida O'rta Osiyoda 4 ta O'lkashunoslik muzeylari bo'lgan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlarida O'lkashunoslik muzeylari (jumladan, Andijon viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi va boshqalar) bor va ular o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Muzeyshunoslik, muzeologiya — muzeylar tarixi, ularning ijtimoiy vazifalari, muzey ishi nazariyasi va metodikasi masalalarini o'rganadigan fan tarmog'i. Muzey tizimiga muzey ishi nazariyasi, muzey ishi tarixi (muzey tarixshunosligi bilan), muzey manbashunosligi, muzeylar va muzey tadqiqotlari faoliyatiga doyr barcha o'ziga xos tomonlarni o'rganuvchi ilmiy metodika kiradi. Muzey buyumlarini jamlash, muzeyga keluvchilarni o'rganish jarayonida dala tadqiqotlari usullari va bevosita muntazam kuzatuv ishlari, ijtimoiy usullarni qo'llaydi. Muzeyning boshqa fanlar bilan har tomonlama uzviy bog'liqligi uning ob'yektiv jihatdan murakkabligini belgilaydi. Muzey ham ijtimoiy, ham tabiiy fanlar bilan birdek bog'liq, ayniqsa, muzeyning mavzuiga oid fanlar va yordamchi fan sohalari (tarix, arxeologiya, geologiya, etnografiya, adabiyotshunoslik, zoologiya, san'atshunoslik va boshqalar) bilan umumiy tomonlari ko'p. Muzeylarning tabiat va jamiyatni o'rganish bilan uzviy bog'liq bo'lgan manbalarni jamlash, muzey buyumlarini ilmiy hujjatlashtirish, o'rganish va saqlash, ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etish, ilmiyma'rifiy, g'oyaviy tarbiyaviy faoliyati va boshqalarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy vazifalari ustida tadqiqotlar olib boradi. Muzeylarni to'ldirish,

yodgorliklarni hisobga olish, saqlash va restavratsiya qilishning ilmiy tamoyillari ishlab chiqiladi.

Xalqaro miqyosda muzey ishini muvofiklashtirish va tajriba almashish ishlarini ko'p mamlakatlarda millim qo'mitalari bo'lgan YUNESKO qoshidagi Xalqaro muzeylar kengashi (IKOM) amalga oshiradi.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda muzey masalalariga bag'ishlangan jurnallar chop etiladi (YUNESKO ning "Museum" jur. va boshqalar), ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar, kafedralar mavjud.

O'zbekistondagi yirik muzeylarda mazkur ko'rsatmalarga doir ishlari olib boriladi. Ayniqsa, "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi farmoni muzeyshunoslik sohasida burilish yasadi. Unga ko'ra, mamlakat Madaniyat ishlari vazirligi, boshqa vazirlik va idoralarga tegishli barcha turdagi mavjud muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, qo'llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida vazirlik qoshida muzeylarni qullab-quv-vatlash respublika "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil etildi. Uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatorida Muzeйда umumiy siyosatni amalga oshirishni ta'minlash, muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalarni, o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston va xorijda keng ko'rgazma faoliyati orqali mamlakatning boy tarixi, bugungi yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlarni jahon miqyosida targ'ib etish; Muzeylarga zamonaviy texnika vositalarini tatbiq etish, ulardan samarali foydalanishga oid dasturlar ishlab chiqarish va ularni amalga oshirishga ko'maklashish belgilandi.

Arxeologik va me'moriy yodgorliklarning o'lkashunoslikda tutgan o'rni o'lkamiz tarixini o'rganishda arxeologiya fanining tutgan o'rni va ahamiyati. Moddiy manbalar va tabiiy manbalar. Tosh davri xususiyatlari. Tosh xo'jaligi va moddiy madaniyati. Tarixiy-madaniy jarayonlar. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) o'tish va ularning keyingi

taraqqiyoti. Bronza va temir davrlari xususiyatlari. O'troq dehqonchilik va ko'chmanchi qabilalarning tarqalishi. Ularning xo'jaligi va moddiy madaniyati. O'lkamizda Antik davri me'morchiligi va san'ati, ilk o'rta asrlar davri shaharlari va me'moriy obidalari. O'zbekistonning XI-XIII asr boshlarime'moriy yodgorliklari va me'morchiligi. O'zbekistonning Amir Temur, Temuriylar va SHayboniylar davri me'morchiligi asrlar davri me'morchiligi. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi me'morchiligi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari va ularning asosiy natijalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2009 - yilda qabul qilingan "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunining o'lka tarixini o'rganishdagi o'rni.

Viloyatlar kesimida o'lkashunoslik muzeylari:

Samarqand viloyat o'lkashunoslik muzeyi - Samarqanddagi tarixiy profilli muzey bo'lib, mahalliy o'lkaning qadim zamonlardan 20-asr boshlarigacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan. 1982-yildan Samarqand davlat birlashgan tarixiy me'morlik va badiiy muzey - qo'riqxonasi (hozirda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi) tarkibiga kiritilgan.

Muzey 1981-yil dekabr oyida O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi muzeyi to'plamlari negizida birinchi gildiya savdogari Abram Kalantaroga tegishli bo'lgan me'mor E.O.Nelle loyihasi bo'yicha 1902-yildan 1916-yilgacha tarixiy uslubda qurilgan tarixiy binoda ochilgan. Hovlida 1902—1916-yillar davomida beshta bino qad ko'targan.

Binoning interyeri har doim tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Binoni bezashda tajribali hunarmandlar – Usta Kamol, Usta Sodiq, Usta Hofiz va boshqalar qatnashgan[4]. Saroyning qurilishi uchun 130 ming oltin rubldan ko'proq mablag' sarflangan. Bugungi kunda saroy haqli ravishda 20-asr boshidagi me'moriy yodgorlik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yorqin rang-barang zal – mehmonxona boshqa xonalar singari o'zining asl bezaklarini saqlab qolgan. Muzeyda tarix, tabiat va mintaqadagi yahudiylar ekspozitsiyasilari faoliyat

ko'rsatmoqda. Bino ichidagi barcha xonalar ketma-ketlikda joylashgan bo'lib, enfiladani hosil qiladi. Mehmonxona va ayrim xonalar asl holda saqlangan. Mehmonxona chiroyli va xilma-xil ranglar bilan bezatilgan. Shift cho'p ustida o'ymakorlik bilan bezatilgan va moyli bo'yoqlar bilan bo'yalgan, devorlarga ganch ustida o'ymakorlik "pardoz" uslubida ishlangan, ganchdan yasalgan panjaralar bilan birga rang-barang shishali vitrajlar o'zgacha husn bag'ishlaydi. Mehmonxonaga nafis, yaltiroq billur qandil osilgan. Binoni qishda isitish uchun 7 ta sirli sopol bezakli "kamin" pechlar o'rnatilgan, ularning bezaklari xonalarga alohida chiroy bag'ishlagan. Binoning birinchi qavatiga o'lkamizning turli hududlaridan topilgan qadimdan to XX asrning boshigacha hikoya qiluvchi ashyolar namoyish etilgan bo'lib, mintaqaning o'ziga xos tarixi, mintaq xalqlarining urf-odatlar va marosimlari, ibtidoiy madaniyat, O'rta Osiyoning eng qadimgi davlatlaridan biri bo'lgan Sog'dning shakllanishi, erta, rivojlangan va kech o'rta asrlarning moddiy madaniyati yodgorliklari, an'anaviy milliy madaniyat bilan tanishtiradi. Mehmonxonada 18-asr oxiri va 19-asr boshlariga oid "ampir" uslubidagi mebellar ko'rgazmaga qo'yilgan. Ayrim mutaxassislarning farazlariga ko'ra, mebel imperator Napoleonga tegishli bo'lishi mumkin va imperator Aleksandr I tomonidan Sankt-Peterburgga olib kelinib saroy amaldorlaridan biriga sovg'a qilingan. Muzeyning 2-qavatida joylashgan tabiat ekspozitsiyasida viloyat hayvonot va o'simlik dunyosi, shu jumladan, "Qizil kitob"ga kiritilgan yo'qolib borayotgan hayvonlar va qushlar tulumlari, o'simlik turlari va gerbariyalar ham namoyish qilinmoqda. Ayni paytda muzeyda xalqaro Joint tashkiloti ko'magida tashkil etilgan "o'tmishdagi va hozirgi mintaqadagi yahudiylar" ko'rgazmasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ekspонатlar Yahudiyon kvartalining tarixi, mintaq yahudiylarining hayoti, urf-odatlar, marosimlari haqida hikoya qiladi.

Bugungi kunda muzey ekspozitsiyasida 2000 dan ortiq ekspонатlar mavjud. 1934 - yilda tashkil etilgan Surxondaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyida Termiz olimlarining tarixiy asarlari, etnografiya, tasviriy san'at, xalq san'ati, mintaq tabiati va boshqa ko'p narsalarni o'z ichiga olgan 14 ming asarlar kutubxonasi

1200 yillik va Burhoniddin al-Margʻiloniy ning 900 yillik yubileylari ana shular jumlasidandir.

Ayniqsa, muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimovning 1998 -yil 12 -yanvardagi 1913-sonli «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish toʻgʻrisida»gi Farmoni [1], Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 5 - martdagi 98-sonli «Muzeylar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash masalalari toʻgʻrisida»gi va 2002- yil 9 -yanvardagi «Noyob zargarlik sanʼati asarlarini asragan holda foydalanish va saqlanishini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha choralar toʻgʻrisida»gi qarorlari muzey faoliyatini yanada jonlantirib yubordi. Bugungi kunda Fargʻona viloyat oʻlkashunoslik muzeyi barcha turdagi zamonaviy texnika vositalari bilan taʼminlangan boʻlib, ular ilmiy-tadqiqot ishlarida katta samara bermoqda. Hozir muzeyda 5 ta (tarix, tabiat, sanʼat, ilmiy-oqartuv va fond) boʻlim va 10 ta (tasviriy sanʼat, metal va sopol buyumlar, maxsus, mato buyumlar, hujjatlar, gazeta va plakatlari, yogʻoch buyumlar, arxeologiya va numizmatika, tabiat, fotonegativ va suratlar) zahiraxonalar faoliyat koʻrsatib turibdi. Shuningdek, Fargʻona viloyat oʻlkashunoslik muzeyining tumanlarda 7 ta tarmogʻi mavjud. Buxoro oʻlkashunoslik muzeyining shakllanishi. Buxoroda sovet hokimiyati oʻrnatilib, ijtimoiy hayot yangi tizimga burib yuborilgandan soʻng, yangi hukumat tomonidan qoʻlyozmalar, eski kitoblar va osori-atiqalarni toʻplash, ularni mamlakat hududidan olib chiqib ketishga yoʻl qoʻymaslikka qaratilgan chora-tadbirlar koʻrildi va bu borada bir qator buyruqlar chiqarildi. 1920-yil 17-sentabrdagi Buxoro Nozirlar Shoʻrosining buyrugʻida jumladan shunday deyiladi: “Butun Buxoro mamlakatlaridagi eski hukumat maʼmurlaridan qolgan eski va yangi kitoblar maorif nazoratiga topshiriladur. Shul kitoblarni koʻrmak yoki sotib olmoqchi boʻlgʻonlar maorif nazoratidan ijozat olmoqlari kerakdur. Xususiy kishilarda eski kitoblari boʻlib sotmoqchi boʻlsalar chetga chiqarmasdan maorif nazoratiga keltirib, oʻz bahosida oqchasini orlik davrida koʻplab bebaho kitoblar, qoʻlyozmalar, osori-atiqalar ayrim kolleksionerlar tomonidan xalqdan yigʻib olinib, olib ketilgan edi. Shu bois Buxoro hukumati bunday salbiy holatlarning takrorlanishiga chek qoʻyish maqsadida

yuqoridagi buyruqlarni chiqarishni maqsadga muvofiq deb bildi. Maorif nozirligining 1920-yil 20-dekabrda buyrug'ida ham shunday xavotirni oldini olishga chaqiriq bor. Unda Buxoroning o'lka madaniyatiga oid osori-atika va nafis san'atlarini maorif nazoratidagi tarixiy osori-atika sho'basiga topshirishga qat'iy da'vatlar mavjud. Maorif noziri boshchiligidagi "Tarixiy osori-atika sho'basi" 1920-1922-yillar davomida samarali faoliyat ko'rsatib, Buxoro vohasida yagona bo'lgan muzey tashkil qilishga muvaffaq bo'ldi. Muzey 1922-yil 8-noyabrda ochiladi. Buxoro muzeyining ochilish sanasi borasida yagona fikr mavjud emas. Tadqiqotchi N.Yo'ldoshev muzey ochilishini 1927-yil bilan belgilaydi²⁰. Biroq Buxoro muzeyi o'z faoliyatini 1922-yilda boshlaganini o'sha yillarda chiqib turgan "Buxoro axbori" gazetasidagi e'lon tasdiqlaydi. O'sha paytdagi Nozirlar Sho'rosi raisi Ato Xo'ja, Maorif nozirligidagi mutasaddi rahbarlar, Rossiyaning Buxoro Respublikasidagi vakolatxonasi boshlig'i N.I.Sokolov hamda xalq vakillari ishtirokida 8 noyabrda Buxoro muzeyining rasmiy ochilish marosimida qatnashadi. Muzeyning ochilish marosimida Ato Xo'ja so'zga chiqib, Buxoroda muzey tashkil etilishining madaniy-ma'rifiy ahamiyati xususida gapirdi. N.I.Sokolov rus vakolatxonasi qaramog'ida ochilgan Fayzulla Xo'jayev nomli qiroatxona (kutubxona) hisobidan muzey uchun ayrim kitoblar beradi. Muzey ochilishi o'sha paytda muhim tarixiy voqea bo'lib, unga tashrif buyuruvchilarning son-sanog'i bo'lmagan. Mazkur xayrli ishni amalga oshirish oson bo'lmagandi, albatta. Buxoro muzeyi ochilishi marosimida muallimlardan biri Nazir afandi so'z olib, muzeyga "Qori Yo'ldosh muzaxonasi" deb nom berishni taklif qiladi. Ushbu taklif barcha ishtirokchilar tomonidan ma'qullandi. Qori Yo'ldosh esa marosim oxirida masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. 1930-yildan Buxoro o'lkashunoslik muzeyi faoliyatida yangi davr boshlandi. Muzey fondi tashkilotlardan olingan, shuningdek, ekspeditsiya natijasida to'plangan va sotib olingan ashyolar bilan boyitila boshlandi. Fond asosan arxeologiya, etnografiya, zoologiya (tabiat) va numizmatika materiallari bilan boyitildi. Bu ishlar P.E.Kornilovning rahbarligi ostida amalga oshirildi. P.E.Kornilovning tashabbusi bilan 1930-yil Oktabr to'ntarishining 13

yilligi va Buxoroda 1920-yil 2-sentabr voqealarining 10 yilligi munosabati bilan yangi ko'rgazma tashkil qilindi. Yangi ekspozitsiya "Ulug' Oktabr to'ntarishi va Buxoro xalq inqilobi" deb nomlangan va o'zida o'sha davr mafkurasini aks ettirgan. 1931-yildan muzey xodimlarining malakasi, soni va tarkibiga e'tibor berildi. Uning tarkibida uchta ilmiy xodim va to'rtta texnik xodim bo'lib, ularga fevral oyida yana bitta ilmiy xodim qo'shilgan. Arxiv hujjatlari ma'lumotlariga ko'ra, muzeyning yarim yillik hisobotida direktor o'rinbosari, uchta ilmiy xodim va to'rtta texnik xodim faoliyat yuritgan. Muzey Ko'kaldosh madrasasining birinchi qavatidagi oltita hujrada joylashadi. Birinchi xonada davriy (vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan) ko'rgazma, ikkinchi xonada sopol, tosh va metall buyumlar, uchinchi xonada yog'och va diniy marosimlarni aks ettiruvchi ashyolar, to'rtinchi xonada Buxoro zardo'zlik san'ati namunalari, beshinchi xonada ov va jang qurollari namoyish etilgan. Oltinchi xona muzey ma'muriyatiga ajratiladi. Bu ko'rgazma boshida direktor o'rinbosari P.E.Kornilov turgan va u birinchilardan bo'lib Buxoroda professional (ixtisoslashgan) muzey faoliyatini yo'lga qo'ygan. O'sha vaqtlarda Buxoro muzeyi Sobiq Ittifoqning Leningraddagi Ermitaj, Tretyakov galereyasi, Sovet inqilobi muzeylari bilan aloqa o'rnatdi. Shu yillarda muzeyga kiruvchilarning soni ham ortadi va 1930-yilda 25011 kishiga etadi. Mahalliy aholi vakillaridan 13348 kishi va yevropaliklardan 11 050 kishi muzeyga tashrif buyuradi. Ularga 613 ekskursavod xizmat qilgan. P.E.Kornilov rahbarligi va tashabbusi bilan G'ijduvon, Vobkent, Vardonze va Gajdumak tumanlarida ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyalari amalga oshiriladi. Yuqori tashkilotlar tomonidan muzey faoliyatiga yetarli mablag' ajratilmaganligi, Petr Yevgenevich Kornilov (1896-1981) tarixchi-san'atshunos olim 1927-1928-yillarda Termiz arxeologik ekspeditsiyasi ishtirokchisi. U 1930-yilda Buxoroga keladi va 1932-yilgacha Buxoro o'lkashunoslik muzeyida direktor o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritadi. Ko'rgazma uchun binoning yetishmasligi ilmiy va texnik xodimlarning yangi ko'rgazma tashkil etishiga imkon bermagan. XX asr 30-yillarida davlat qurilishining besh yillik rejasi asosida muzey ishiga ham e'tibor berilgan. Buning natijasida

muzey huzurida ilmiy kengash, muzey xodimlarining yig'ishlari va turli sovet jamiyatlari bilan hamkorlik kengashlari tuziladi. Ko'rilgan chora tadbirlar natijasida muzey xodimlari 8-mart nomi ostida yangi ko'rgazma tashkil etishgan. Ko'rgazma uchun eksponat yetishmasligi oqibatida tashkilotlardan material yig'ishga kirishiladi. Muzey ilmiy xodimlariga 1931-yildan boshlab o'lkashunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish vazifasi yuklatilgan. P.E.Kornilovning ma'lumotiga qaraganda, o'sha vaqtlarda Buxoro o'lkasini ilmiy o'rganish borasida na pedagogika instituti va na o'lkashunoslik jamiyatlari faoliyat yuritgan. Shuning uchun o'lkani o'rganish ishlari oz sonli muzey ilmiy xodimlari zimmasiga tushgan. Buxoro o'lkashunoslik muzeyining 1946-yildagi hisobotida qayd etilishicha, muzey fondi va kutubxonasi ashyo va kitoblar bilan boyitiladi. Birgina shu yilning o'zida 12 ta ilmiy kengash chaqirilgan va unda Gelax, Ivanov, Irantsova va boshqalar ma'ruza bilan ishtirok etganlar. O'sha yili Ark va Sitorai Mohi Xosani ta'mirlash uchun davlat tomonidan 230 ming rublajratiladi. Xulosa qilib aytganda, muzeyni tashkil etishdan maqsad Buxorodagi boy tarixiy kitoblar, osori-atiqalar, tarixiy ashyolarni qisman bo'lsa-da saqlab qolishdan iborat edi. Ikkinchidan, hukumat teatrlar qatorida muzey tashkil etish, aholini o'z tarixi bilan tanishtirish va ularning dunyoqarashini sal bo'lsa-da o'zgartirishga harakat qilgan. Muzeyning qisqa vaqt (1922-1924) faoliyat yuritishiga sabab ko'rgazma tizimli bo'lmagan, yig'ilgan ashyolar davrlashtirilmay joylashtirilgan va o'sha davrdagi tuzumga mos bo'lmagan shu sabab muzey vaqtincha o'z faoliyatini to'xtatgan. 1925-yildan boshlab muzey sohasi uchun yangi davr boshlandi va bu ishlar bevosita Buxkomstarisning faoliyati bilan bog'liq. XX asrning birinchi yarmida davlat tomonidan o'lka tarixi va muzey ishiga alohida e'tibor qaratildi.

Chirchiq davlar qo'riqxonasi. Muzeyda jonajon diyorumiz tarixi, Chirchiqning betakror tarixi haqida hikoya qiluvchi, shaharga bo'lgan g'urur va muhabbatni saqlash, uning ijobiy imidjini shakllantirishga xizmat qiluvchi boy asarlar va asl hujjatlar to'plami mavjud

1957 - yili chirchiqlik kekxa yoshli Viktor Zinovevich Cherniy, 8-maktab direktori Iosif Aronovich Shved, Madaniyat bo‘limi mudiri A. I. Tixomolov va shahar sanoat korxonalarini hamda maktab ishchilari shahar o‘lkashunoslik muzeyini tashkil etish taklifi bilan chiqishdi. Shahar rahbariyati va mamlakat rahbariyati bu g‘oyani qo‘llab quvvatladi. 1958 yil 3 fevralda O‘zSSR Oliy Kengashi Chirchiq shahrida muzey tashkil qilishga farmoyishi e‘lon qilindi. Shu yilning aprel oyidayoq muzey shtatlari tasdiqlanib, byudjet mablag‘i ajratilgan. Chirchiq muzeyi Toshkent viloyatidagi birinchi o‘lkashunoslik muzeyi bo‘ldi. Ular shahar aholisining katta yordami bilan ashyolar yig‘dilar, hujjatlashtirdilar, eksponatlarga ilmiy tavsiflar yozdilar. Chirchiqliklar muzeyga shahar qurilishi va ravnaqi tarixi yaratilishida hujjatli va moddiy ashyolar taqdim etdilar. Muzeyni barpo etishda tarix fanlari nomzodi Sh. Zuxritdinov, geografiya o‘qituvchisi A. D. Soliyev va boshqalar katta yordam qildilar. Keyinchalik muzeyga "O‘zbekximmash" sobiq klubi, 1942 yilda qurilgan va bugungi kunda muzey joylashgan, "oltiqrirali" bino ajratilgan.

Muzey xodimlari hujjatli va ashyoviy eksponatlarni nafaqat Chirchiqdan balki butun respublika bo‘ylab yig‘ishdi. Shu bilan bir vaqtda ular ekspozitsiyalar yaratish bilan ham shug‘ullanishdi. Chirchiqlik rassomlar B. S. Chubarov, V. I. Golubev, A. T. Golovchenkolar muzeyni boyitishda katta hissa qo‘shdilar. Muzeyda jonajon o‘lkamiz tabiati, arxeologik kolleksiya va ekspozitsiyalarini yaratishda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi va Respublika tabiat muzeyi salmoqli yordam ko‘rsatdilar. Chirchiq o‘lkashunoslik muzeyi birinchi tashrif buyuruvchilarni 1959 - yil 1- may kuni qabul qildi va bu shahar madaniy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Bu vaqtda muzey fondida 816 birlik moddiy ashyo saqlanar edi. Yig‘ilgan muzey buyumlarining deyarli barchasi ekspozitsiyada namoyish qilingan edi. Dastlabki eksponatlar orasida "Chirchiqqurilish" davriga oid noyob foto albomlar, shaxsiy buyumlar, hujjatlar, fotosuratlar, kitoblar, "Udarnik Chirchikstroy" va "Stalinskoye znamya" gazetalari shahar ilk quruvchilari bo‘lgan X. M. Shokirov, T. Turdaliyev, A. Tursunbayev. I. G. Gutsalov, V. P. Manuylov, T. M. Arskaya va boshqalar arxivlaridan olingan. Shuningdek ekspozitsiyalarda "Chirchiqqurilish" ishchilari

kiyimlari, turar joy interyerlari ham namoyish qilingan. Bundan tashqari mehmonlarga paleolit davriga oid tosh va suyak qurollar, Xojikent atrofidagi ilk odam manzilgohi qazilma ashyolari, bronza davri buyumlari ham namoyish qilingan. Chirchiq o'lkasi tabiiy va iqlim sharoitining o'ziga xos xususiyatlari, uning o'simlik va hayvonot dunyosini ko'rsatishga katta e'tibor qaratilgan.

Birinchi yarim yillik davomida muzeyga 10 ming kishi tashrif buyurdi. Yildan yilga muzey fondi to'ldirildi. Muzeyning boshlang'ich maydoni torlik qildi, shuning uchun 1960 yili muzeyning birinchi qavati kengaytirildi. 1961 yilda binoning ikkinchi qavati qurilib, unda Respublikada birinchi bo'lgan Planetariya ochildi. Muzeyda keng ko'lamlı yig'ish va tadqiqot ishlari 1970-yillarda o'tkazildi. Bu davrda muzey fondi muhim qimmatli muzey buyumlari bilan to'ldirildi. Bular Chirchiq shahri asoschilari bo'lgan: "Chirchiqqurilish" birinchi boshlig'i D. P. Rozit, qurilish birinchi bosh muhandisi K. A. Drennov, "Chirchiqqurilish"ning 1937-yildagi boshlig'i F.G. Loginov, "Chirchiqqurilish" texnik bo'limi ilk boshlig'i S. I. Povarenyy, topograf I. I. Klimashevskiy va boshqalar shaxsiy arxivlaridir. Muzey Troitsk dahasiga ilk ko'chib kelgan ruslarning fotosuratları va maishiy buyumlari, Chirchiq o'lkasi tub aholisidan D. Pobedinskiy, V. Atlanov, K. Kurganbayev va boshqalar hujjatlari kabi qimmatli ashyolarga ega bo'ldi. Ushbu yillarda muzeyning Tabiat bo'limi jihozlanishi yanada jonlantirildi. Endi o'lka tabiati 3 ta landshaftli: tog', o'rmon va vodiya kabi majmualari bilan Chirchiq o'lkasi tabiatini tabiiy aks ettiradigan bo'ldi. Muzey binosi 1942 - yilda qurilgan bo'lib, "O'zbekximmash" zavodining sobiq klubi bo'lgan, "oltiqrirali" shaklga ega. Muzeyning boshlang'ich binosi torlik qilganligi sababli 1960 yilda 1-qavati kengaytirilgan. 1961- yilda binoning 2-qavati qurilib, unda Respublikada birinchi bo'lgan "Planeratiya" ochildi. Muzey binosini umumiy maydoni 577 m.kv.ni tashkil qiladi. Muzeyda 2017-yilda joriy ta'mirlash o'tkazilgan. 2018-yil Chirchiq shahar O'lkashunoslik muzeyi Chirchiq shahar tarixi muzeyiga aylantirildi. 2018-2019 yilda davlat dasturi asosida mukammal ta'mirlash ishlari olib borildi. 2020-yilda oldingi O'lkashunoslik muzeyi Chirchiq shahar tarixi muzeyi nomi bilan qayta

tashkil etildi. Chirchiq muzeyining asosiy bo‘limlar, katta va kichik ko‘rgazma zallarida muntazam ravishda rassomlar, amaliy san‘at ustalarining shuningdek, muzey etnografik, numizmatik va geologik-mineralogik kolleksiyalar bo‘yicha turli xil ko‘rgazmalar o‘tkaziladi. Hozirgi paytda muzeyda jami 34873 ta ashyolar saqlanmoqda. Shularning 34302 tasi asosiy fond, 571 tasi ilmiy yordamchi 236 ta arxeologiya, 1199 ta numizmatika, san‘at 537 ta etnografiya va maishiy buyumlar 743 ta fotografiya 9853 ta hujjatlar 2705 ta va 19029 tani boshqa bo‘limlar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Н. Бухоро музейи //Фан ва турмуш. 1959. №12. –Б. Бухоро ахбори. 112-сон. 1922 йил 23 ноябр.
2. Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея (1925-1927 гг.). //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 2. – Бухара: Бухоро, 1994. – С.40..
3. Корнилов П.Е. Государственный Бухарский музей //“Советский музей”. – Москва: 1931. – №4. –С. 92-96.
4. Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.20; Курбанов Г.Н. Бухарскому краеведческому
5. музею-60 лет //Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1983. № 1. – С.64-65; Корнилов П.Е.
6. Государственный Бухарский музей //“Советский музей”. –Москва: 1931. №4. -С. 92-96.
7. Музейное дело в России. 3-е изд./ Под редакцией М.Е. Каулен, И.М. Коссовой, А.А. Сундиевой. –Москва:
8. Издательство “БК”, 2010. – С.150.
9. Корнилов П.Е. Из новых работ государственного Бухарского музея //“Советский музей”. –Москва: 1932.
10. Альмеев Р.В. Музей Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. –Ташкент:
11. Издательско-полиграфический творческий дом имени Г.Гуляма, 2007. – С.49.
12. 10. Музейное дело в России. 3-е изд. /Под редакцией М.Е. Каулен, И.М. Коссовой, А.А. Сундиевой. –Москва:
13. Издательство “БК”, 2010. – С.149.
14. 11. Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. –Ташкент: Фан, 1975. – С.90.